

## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YO'NALISHI VA KONSEPT MASALASI

**Murodova Nazira Ilhomovna**

Farg'ona davlat universiteti, f.f.f.d

**Yakubova Nozima Asiljon qizi**

Farg'ona davlat universiteti magistratura talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslikning kelib chiqish tarixi va bu tilshunoslik yo'nalishi yuzasidan olib borilgan ishlar davrma-davr tahlil qilinadi. Shuningdek, kognitiv tilshunoslikning asosi bo'lgan konsept tushunchasini va uning nazariy asoalarini ham o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** kognitiv tilshunoslik, konsept, tushuncha, antroposentrik qarashlar, lisoniy ong, obraz, lingvokulturalogiya, badiiy konsept, tuyg'u konsepti

### **Kirish**

Til insoniyat yaratilganidan beri rivojlanishning asosiy meyor va katta kuchi hisoblanadi. Uning yordami bilan inson dunyoqarashi va madaniyati o'smoqda, shakllanmoqda. Har bir etnosning va xalqning madaniyat va ma'rifat ko'zgusi bu tildir. XX asrning oxiri XXI asrning boshlariga kelib ko'pkina tilshunoslik sohalari va yo'nalishlari paydo bo'la boshladi va antroposentrik qarashlar yetakchi o'ringa chiqib oldi va bunday qarashlar mustaqil paradigm sifatidagi eng yoyilib bormoqda. Kognitiv tilshunoslik shu antroposentrik paradigmning yetakchi yo'nalishlaridan biridir.

Kognitiv lingvistika zamonaviy, ilmiy tadqiqotlarning faol rivojlanayotgan sohasidir. Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni ingliz tilidagi “cognitive-bilishga oid” yoki “cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq” so'zlari bilan bog'liq bo'lib, kelib chiqishi lotin va yunon tillariga borib taqaladi hamda anglash, tushunish, taffakkur tushunchalari bilan bog'liq.

### **Muhokama va natijalar**

Amerikalik olimlar J. Miller, J. Bruner, R. Jakobson, R. Langacker, J. Lakoff va boshqalarning ilmiy ishlari zamonaviy kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi bilan bog'lanadi. Kognitiv tilshunoslik tilni falsafadagi bilish nazariyasi bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va eyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini ilmiy tadqiq etuvchi soha hisoblanadi. Shuningdek, kognitiv tilshunoslik ko'plab fanlar xususan kognitologiya, kognitiv psixologiya, psixolingvistika, lingvistika chegarasidagi fan bo'lib ularning to'qnashuvida vujudga keldi. Bu borada A.P. Babushkin “kognitologiya turli fan sohalari chorrahasida yuzaga kelgan fan” degan fikrni ilgari surgan va uning tadqiqot sohasi bilimni to'plash, qo'llash usullarini tadqiq qilish sifatida belgilanish kerakligi haqida yozilgan. Yevropaning an'anaviy tilshunosligida ilk bor 1975-yilda kognitiv grammatika atamasi uchradi. Bu atama J. Lakoff va S. Tompsonning maqolasida paydo bo'ladi va 80-yillarda yevropa tilshunosligiga kognitiv tilshunoslik kirib keldi. 1988-yilda esa V.I. Gerasimovning “Yangi zamonaviy tilshunoslik” maqolasi bilan kognitiv tilshunoslik atamasi rus tilshunosligiga kirib keladi.

Atoqli rus tilshunosligining yana bir vakili E.S.Kubryakova quyidagicha fikr bildiradi: “Kognitologiya ko’p qirrali fan sohalaridandir. Uning doirasida shakllangan tilshunoslik, o’z navbatida, murakkab vazifa ijrosini ko’zlaydi, lisoniy va bilim stukturalari o’rtasidagi munosabatlar hamda doimiy muqobilliklar tahlili, izohi rejalashtiriladi”

1989-yilning bahorida Germaniyaning Duysburgda o’tkazilgan Xalqaro lingvistik simpozium bilan kognitiv tilshunoslikning rasmiy “dunyoga kelishi”ni bog’lashadi. Bir vaqtning o’zida bu simpozium kognitiv tilshunoslik bo’yicha birinchi xalqaro konferensiyaga aylangan. Simpozium ishtirokchilari Xalqaro kognitiv lingvistika assotsiatsiyasi ya’ni International “Cognitive Linguistics Association” ni tuzdilar, shuningdek, yana bir katta qadam “Kognitiv lingvistika tadqiqotlari” – “Cognitive Linguistics Research” monografiyalari seriyasini yaratadilar, keyinchalik “Kognitiv lingvistika” – “Cognitive Linguistics” jurnaliga asos soldilar va ular ushbu sohadagi mashhur vakillarining asarlarini chop etdilar.

Barchamizga ma’lumki, yuqorida aytib o’tgan konferensiyadan ilgariroq ya’ni 1980-yillar kognitiv tilshunoslik shakllanib bo’lgan edi. Bu kognitiv tilshunoslikning gullab yashnagan davri sifatida aytishimiz mumkin hamda ko’plab asarlarning chop etilishi ham shu vaqtga bo’lgan. Masalan, Jorj Lakoff va Jonson 1980-yilda, Faukonniyer esa 1985-yilda hamda Langaker 1987-yilda ilmiy maqolalari va risolalari chop etib bo’lishgan edi.

O’zbek tilshunosi professor A.Mamatov til tizimini kognitiv jihatdan tahlil qilish borasida fikr yuritar ekan, shunday deb yozadi: “Kognitiv fan kognisiya bilan shug’ullansa, kognitiv tilshunoslik kognisiyaning, ya’ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo’lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o’z tuzilishiga ko’ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi.

So’zimiz davomini konsept tushunchasi bilan davom ettiradigan bo’lsak, Konseptlar inson turmush tarzi bilan bog’liq ma’lum tushunchalarni maxsus

qoliplarga solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilab beradi. Shuningdek,

konsept tushunchasi borasida fikr va munozaralar ko’pchilikni tashkil qilib uning

ta’rifi borasida aniq to’xtamni topish qiyin. Konsept kognitiv tilshunoslikning asosi hisoblanib, u 1928-yilda 20-asrning birinchi choragidagi faylasuf S.Askoldov tomonidan kiritilgan. Askoldovning yozishicha va qolgan ko’pkina manbalarda “konsept lotin tilida “conceptus” – “tushuncha” so’zining kalkasidir” deb ta’rif berilgan. Boshqa tilshunos Lyapinning aytishicha, ko’p tarmoqli idealizatsiyalashtirilgan shakl – bu konseptdir. O’zbek tilshunosi Sh.Safarov o’zining “Kognitiv tilshunoslik” asarida konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha ,obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi deb yozadi. Shuningdek, konseptning shakllanishi individual obraz tug’ilishidan boshlanib ,lisoniy birlikning paydo bo’lishi bilan tugaydi.

Dastlabki o’rinda konseptning lisoniy moddiylishuvi ong va til tizimi o’rtasidagi hamkorlikning mahsuli ekanligini unutmaslik kerak. Konsept shakllanishining boshlang’ich nuqtasi voqelik bo’lagi ya’ni

ppredmeti haqidagi tasavvur – obrazning yuzaga kelishidir. Bu obraz oddiy sxema yoki shakl bo'lib qolmasdan, balki mazmuni hodisadir. Boshqacha aytganda subyekt obrazning oddiy shaklini ko'rmaydi yoki uning mazmunini idrok qilmaydi, u mazmunli obrazni idrok etadi. Xuddi shu mazmunli obraz lingvistik belgiga aylanadiva bu belgi ma'nosining o'zagini tashkil qiladi. Lekin voqelik –ong-lisoniy belgi o'rtasidagi bunday uzviylikni oddiy takrorlash ko'rinishida talqin qilaslik kerak. Chunki ong voqelikni lisoniy belgi vositasida oddiygina aks etirmaydi, balki subyekt uchun muhim bo'lgan belgi-xususiyatlarni ajratadi va ular asosida idrok etilayotgan obyekt (predmet, hodisa)ning namunaviy modelini yaratadi.

Kubryakova esa konseptni inson psixikasida aks etadigan, butun olam qiyofasini ifodalaydigan lisoniy ong ekanligini aytib, mental leksikonning xotiradagi operativ mazmuniy birligi sanaladi deb ta'kidlaydi. Shuningdek, inson ruhiy olamidagi madaniyatning asosiy birligi “konsept hisoblanadi. Bu haqida Y.S Stepanov “Ruhiy olamidagi madaniyatning asosiy birligi his tuyg'ular, yoqtirish va yoqtirmaslik, ba'zida to'qnashuvlar mavzusidir degan ta'rifni berib o'tgan. Yuqoridagi fikrlardan shuni umumlashtirish mukinki, konsept o'rganish jarayonida va shunisi ko'rinishida turibdidi konsept ham umumiy, ham individual bo'lib, har bir inson shaxsiy mental olamidani kelib chiqib, dunyoni, his-tuyg'ularini, vazifani bajaruvchi tushuncha.

Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi.

Professor N.Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilish xususiyatlarini shunday yozadi: “Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanish muommolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganligini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan”. D. S. Lixachevning tahlil qilishicha, konsept – bu individual anglash jarayoni va ma'lum kontekstda so'z ma'nosini almashtirish hisoblanadi. Har bir olingan konsept ma'lum bir lingvomadaniyatda o'ziga xos shakllanishga ega sanaladi. Konseptlar, o'z navbatida, so'z ma'nolariga nisbatan keng talqin etiladigan, murakkab tipologik qurilmaga ega.

Konseptni tahlil qilib o'rganar ekan, tilshunoslar uni turlicha qismlarga ajratadi. Masalan, Stepanov konsept tuzilishini 3 qismga bo'lgan:

1. asosiy - aktual belgi;
2. qo'shimcha - passiv belgi;
3. ichki shakl

Uning yozib qoldirishicha, oxirgi belgi hozirda qo'llanilayotgan konseptlarning tub komponentini ifodalab, asosan, birinchi shakli bilan bog'liqlik tomoni kam bo'ladi. Boshqa olimlarning ham ta'riflariga ko'z tahlaydigan bo'lsak: G.G. Slisshkin yuqoridagi ta'rifdan farqli konseptni 4ta zonaga bo'lib tasnif beradi. U zonalarini asosiy va qo'shimcha zonalarga ajratadi va quyidagicha nomlaydi: asosiy zona- intrazona va ekstrazona; qo'shimcha zona – kvazizona va kvaziekstrazona. Slisshkin shunday o'rganib taklif qilgan bo'lsa,

Popov va Sterninlar ikkiga bo'lishgan: yadroviy zona va periferik zonalarga va ularning o'zaro mutanosibligini konsept strukturasi tushunchasiga berilishi haqida tushuntirib o'tilgan. Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi. Konseptni o'rganish uchun ma'lum bir millatning dunyoqarashi, turmush-sharoiti va mentaliteti, an'analari o'rganib, aynan o'sha konseptni tutgan o'rni aniqlab, tahlil qilish kerak.

Safarov Sh.ning ta'kidlashicha konseptning lisoniy moddiylashuv jarayoni yana bir muhim mental bosqichni bosib o'tadi. Voqelikning tafakkurdagi umumlashgan inikosi – obrazning mantiqiy “qayta ishlanishi” natijasida hosil bo'lgan konsept lisoniy “libos” olishidan ildin ushbu «libos»ning tasavvurdagi aksi-modeli yuzaga keladi. Lisoniy voqealanish rejasi paydo bo'lgan zahotiyoq

uni amalga oshirish uslubini izlanadi. Reja hamda “so'zsiz” model nolisoniy yoki “botiniy nutq” jarayonida yuzaga keladi.

Badiiy konsept va bilim konsepti o'rtasidagi yana bir muhim farq shundaki,

tadqiqotchilar "his-tuyg'ular, xohish-istaklar, umuman olganda, ilm konseptiga

befarq bo'ladilar". Badiiy konsept esa odatda, har ikkalasining ham majmuasidir, ya'ni tushunchalar, g'oyalar, his-tuyg'ulardan iboratdir, his-tuyg'ular esa ba'zan hatto oliy belgilarini ham ifodalaydi".

Ushbulardan ma'lum bo'ladiki, badiiy konsept ma'lum bir "hissiy va estetik

zo'riqish" ni yaratishga qodir va ayni paytda idrok tushunchalari shakllantirishga qodir bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi. Ehtimol, badiiy konsept tuzilishida umumiy va individual ma'naviy ma'nolarni, ya'ni emotsional-baholovchi narsalar (salbiy va ijobiy yoki bo'yoqdorlik va boshqalar)ni ajratib ko'rsatish orqali o'ziga xoslikni ifodalashi mumkin bo'ladi.

Tuyg'u konsepti bir butun bo'lib, u o'z ichiga barcha tuyg'u nomlarini jam qilagan holda, har bir tuyg'u nomlari o'zi alohida konsept bo'lib kela oladi. Shuning uchun so'ngi yillarda yoqlangan juda ko'plab dissertatsiya ishlari tuyg'u konseptiga ega bo'lgan so'zlarning tahliliga qaratilgandir. Sog'inch, g'am, baxtiyorlik, hafalik, nafrat va muhabbat kabi konseptlar u yoki bu tillarda ko'p o'rganilgan tuyg'u konseptlariga misol bo'la oladi.

## XULOSA

Yuqoridagi fikrlarni o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, konsept tushunchasi har bir shaxs uchun individual va jamiyat uchun umummilliy bo'lgan, ong, til va ruhiyatning bog'liqligida kechuvchi jarayondir. Shunday qilib, konsept ko'p tarmoqli va ko'po'lchovli hodisadir. Kognitiv tilshunoslikda turli olimlarning fikrlarini o'rganish natijasida yakdil xulosaga kelinmagani ma'lum bo'ldi va tilshunoslikning yanada chuqur o'rganilishi talab etiladigan mavzusi ekanligi ko'rindi.

## REFERENCES

1. Скребцова, Т. Г. Когнитивная лингвистика: Курс лекций. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2011.— 6-с.
2. Abduraimova B.I. KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA LINGVOMADANIYATDA KONSEPT TUSHUNCHASI //SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 2 | 2022 ISSN: 2181-1601.PAGE 1223
3. M.Tojimatova MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA VATAN KONSEPTI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 8
4. Попова З Д. Стернин И.А. Язык и национальная картина мира - Воронеж: Истоки, 2002 - 60 с
5. Степанов, Ю. С. Константы: Словарь русской культуры – М.: .Академиче-ский проект, 2004. 992с
6. Abdullayeva V, Abdusamadova U Kognitiv tilshunoslikda frazeologik biriklarning ifodalanishi. “Sharq tillarini o‘qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 24
7. Mamatov A. E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? Tilshunoslikning dolzarb masalalari: Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Andijon,2012/-B.212-219.
8. Sh.Usmonova. Lingvokulturologiya. Darslik. T.2019 b-24.